

KIMYONI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR


Turdialiyeva Muxtasarxon

Magistratura bo'limi 70110801

Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi (kimyo)yo'nalishi 1- bosqich talabasi


Bugungi fan va texnika jadal rivojlanib kelayotgan bir vaqtda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar diqqatini uzoq vaqt bir nuqtaga qaratishni uddalash birmuncha qiyin masalaga aylanib ulgurdi. Bundan tashqari o'sib kelayotgan yosh avlod uchun axborot olish manbalarinig ko'pligi ularning tasavvur darajalarini ham kengaytirib, oddiylilik va soddalik endilikda ko'plab yoshlarimizni hayratlantirmay qo'ydi. Shunga o'xshash holatlar Pedagog o'qituvchilar oldiga yangi vazifani qo'yadiki o'quvchilarga o'qib o'rganish jarayonlarida yangicha metod va texnologiyalardan foydalanib bilm berish, shuningdek ularning o'zlashtirish darajalarini yanada oshirishni nazarda tutadi.

Barcha fanlar singgari kimyo fanini ham o'qitishda faqat ma'ruza qilish metodidan foydalanish ko'p jihatdan o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini pasayishiga olib keladi. Dars davomida turli zamonaviy texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarni bir qator o'ziga jalb qiladi, qiziqish uyg'otadi. Misol uchun 9- sinf o'quvchilariga "Kimyoviy bog'lanishning turlari: kovalent bog'lanish (qutubli va qutubsiz), ionli, metal bog'lanishlar" mavzusini noan'anaviy usulda tusuntirilsa bu holatda ularning yodda saqlab qolish imkoniyatlari yuqoriroq bo'ladi. Masalan: ushbu mavzu 9-sinf o'quvchilariga 8-sinfda ham o'rgatilganligini inobatga oladigan bo'lsak ularga yangicha metod bilan dars o'tilganda yana ham chuqurroq bilimga ega bo'adilar. Bunda KLAUSTER metodidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.





Ushbu metod orqali o'quvchilarga yangi bilim berishda an'anaviylikdan biroz chetga chiqqan holda grafiklardan foydalanish eslab qolish jarayonini tezlashtiradi. Bu esa keyinchalik ushbu bilimlardan foydalanishda tasavvur qilishni osonlashtiradi. Yuqoridagi mavzuni darsda to'liq o'tib bo'lgandan so'ng uyga vazifa sifatida VENN DIAGRAMMASI metodidan foydalanish o'rganilgan bilimlarni yanada mustahkamlanishiga asos bo'ladi.



Yuqoridagi metodni ion hamda qutubli kovalent bog' o'rtasida ham qo'llash mumkin. Mana shunday metodlar yordamida o'quvchilar bilim darajalarini oshirish, ularni mavzu yuzasidan tushunchalarini kengaytirish va izlanuvchanliklarini, ijodkorliklarini oshirishga dasturi amal bo'lib hizmat qiladi.